

O‘TKAN KUNLAR ROMANIDA OILA FOJEASI VA UNING SABABLARI**Rajabova Mo'jiza**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18867110>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida oila, muhabbat va ijtimoiy muhit masalalari tahlil qilinadi. Asarda Otabek va Kumush timsolida sof muhabbat, Zaynab obrazi orqali esa rashk va ichki ziddiyatlar yoritilgan. Roman XIX asr Turkiston hayotini tasvirlash orqali milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: oila, muhabbat, fojea, tarixiy roman, rashk, ijtimoiy muhit.

Kirish

Adabiyot olamining yuksak jonkuyarlaridan biri Abdulla Qodiriyning asarlari yozilganiga ancha yillar bo‘lgan bo‘lsa ham kunda kunga kitobsevarlar qalbidan yanada chuqur joy egallamoqda. Bu asarlar qancha o‘qilsa ham o‘quvcisini aslo zeriktirmaydi aksincha yanada o‘z ichiga tortib chuqur o‘ylashga, tahlilga undaydi. O‘zbek adabiyotida roman janrining shakllanishida Abdulla Qodiriy alohida o‘rin tutadi. Uning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotidagi birinchi tarixiy roman hisoblanadi.

Asar XIX asr Turkiston hayoti, ijtimoiy munosabatlar va insoniy tuyg‘ularni haqqoniy tasvirlagani bilan ahamiyatlidir. Roman markazida Otabek va Kumushning muhabbati turadi.

Ularning sof va samimiy tuyg‘ulari eski urf-odatlar, majburiy nikoh va ko‘pxotinlilik sababli fojeaga aylanadi. Asarda oila muhitidagi kelishmovchiliklar, rashk va noto‘g‘ri qarorlar inson taqdiriga qanday ta‘sir ko‘rsatishi aniq misollar bilan ko‘rsatiladi. Asrni o‘qir ekanmiz dastlab beg‘ubor sevgi borasidagi his tuyg‘ularga duch kelamiz. Asar oxirida esa ana shunday beg‘ubor sevgining, gulday oilaning parokanda bo‘lganini guvohi bo‘lamiz. Ya‘ni Otabek va Kumush ahd qilib oila quradilar bundan esa Otabekning ota-onasini xabari bo‘maydi. Chunki buni aytish uchun fursat topa olmaydi. Shundan keyin oilaviy fojealar birin-ketin boshlanaveradi.

Otabek aslida Kumushni sevadi. Lekin ota-onasining rayi bilan Zaynabga uylanadi. U bu nikohni o‘z xohishi bilan emas, ota-onasining roziligi va urf-odat sabab qabul qiladi. Chunki o‘sha davrda farzand ota-onaga qarshi chiqishi uyat va itoatsizlik hisoblangan. Otabek ham ota-onasini ranjitishni istamaydi. Shu sabab u ichki noroziligini ochiq aytolmaydi. Otabekning qalbi Kumush bilan, Zaynabga uylanganini tan olishi esa o‘z sevgisiga xiyonat qilgandek tuyuladi.

Shu bois u bu masalada qiynaladi va aniq javob bera olmaydi. XIX asr Turkiston muhitida ko‘pxotinlilik va majburiy nikoh odatiy hol bo‘lgan. Otabek ham shu ijtimoiy muhit qurboni bo‘ladi. Uning uylanini aytolmasligining asosiy sababi ham bu sevgi va majburiyat o‘rtasidagi ichki ziddiyatdir.

“O‘tkan kunlar” romanidagi fojea birgina sababdan emas, bir nechta omillardan paydo bo‘ladi. Shu yerda muhabbat va majburiyat to‘qnashadi. Bir erkakning ikki ayol bilan turmush qurishi, farzandning ko‘nglini so‘ramaslik oilada ichki nizoni keltirib chiqaradi. “O‘tkan kunlar” romanida Kumush tasviri eng ko‘p berilgan. Chunki u asarning bosh qahramonlaridan biri.

Kumushbibi asar davomida qanday holat va vaziyatlarni boshdan kechirgan bo‘lsa, muallif har bir vaziyatda Kumush holatini, ichki kechinmalarini batafsil tasvirlaydi. Asarda Kumushning dastlabki tasviri par yostiqa yotgan qora zulfli, quyuq jingala kiprikli, tim qora ko‘zli, qop-qora o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshli, to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biz oz qizillikka aylangan, latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan qora xoli, oq nozik qo‘llari bilan beriladi.

Zaynab muallif tomonidan qisqa bo'y, oq tan va go'shtdor sifatleri bilan tasvirlanadi.

Faqat tashqi ko'rinishda emas, ichki xarakter jihatidan ham bir qorindan talashib tushgan Xushro'ybibidan farq qilar edi. Zaynab loppos, o'nta so'zga zo'rg'a bitta so'z bilan javob beradigan, ichidagi o'y-fikrni so'nggi daqiqalardagina aytadigan "ichimdagini top" kishilar xilidan edi. Zaynab yomon emas, aslida u ham baxtli bo'lishga haqli ayol edi. Uning ham bir olam orzulari bor edi. Ammo rashk asta-sekin nafratga aylanadi. Oxir-oqibat aynan shu rashk fojeaning eng og'ir nuqtasiga olib keladi. Fojea — sevgi va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatdan tug'iladi. Ya'ni insoniy tuyg'ular eski urf-odatlar va majburiy qarorlar qurboniga aylanadi.

Roman XIX asr Turkiston hayotini ko'rsatadi. Siyosiy beqarorlik, ichki nizolar ham qahramonlar taqdiriga ta'sir qiladi. O'zbek oyimning orzusiga ko'ra uylangan Otabekning ikkinchi rafiqasi, asar fojeaviy tugashiga sababchi bo'lgan obraz Zaynabdir. Faqat tashqi ko'rinishda emas, ichki xarakter jihatidan ham opasidan farq qilar edi. U o'zi bilmagan holda Xushro'ybibi sababli katta xatoga qo'l uradi. Opasining shu gaplari bo'lmaganda Kumushni joniga qasd qilish uning xayolidan o'tmagan bo'larmidi. Zaynab so'nggi urush-janjaldan so'ng opasi shaddod Xushro'ybibining uyiga borganda opalargagina xos bo'lgan jonkuyarlik holat ro'y beradi. Singlisining bu holga tushishiga faqat va faqat singlisini ayblab, undagi muammoni ochiq aytadi. Xushro'ybibi hech qachon Zaynabga "oilangdagilarni zaharla" deb aytmaydi.

Singlisiga joni achiganidan, ko'z yoshlarining daryo bo'lganidan kuyinib "Sening o'rningda bo'lganimda bilasanmi nima qilar edim, Zaynab, dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni yuz tomchi zahar bilan qo'shib tashlar edim",- deya gapiradi. Xushro'ybibi o'zicha o'ylagan to'g'ri yo'lni Zaynabga ko'rsatadi, ya'ni erdan chiqishni maslahat beradi.

Opasining birgina so'zi Zaynab qalbiga g'ulu tushadi, rashk o'tida yongan yuragiga moy sepganday bo'ladi. Kumushni aynan Zaynab tarafidan zaharab o'ldirilishi o'quvchi nigohida Zaynab salbiy obraz sifatida muhrlanib qoladi. Zaynab salbiy obraz sifatida tasvirlansa-da, Zaynabning Otabekka bo'lgan chin muhabbati ortidan Kumushbibi hayotiga zomin bo'lganining guvohi bo'lamiz. Alam o'tida yonib yurgan Zaynabga shu birgina so'zning o'zi kifoya bo'ldi.

Turmush qurib sevilishga-da sazovor bo'lmagan Zaynab taqdiri jununlik ila yakunlandi.

"O'tkan kunlar" nafaqat muhabbat qissasi, balki millat taqdiri, jamiyatdagi islohot zarurati haqida ham chuqur fikr yurituvchi asardir. Shu jihatdan roman bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. - T.: Yangi asr avlodi, 2011
2. Jabborov N. O'tkan kunlarda milliy ruhiyat talqini. - T.: Sharq, 2019.
3. Jo'raquloov U. Qodiriy va roman tafakkuri. - T.: Nurafshon business, 2020.
4. Karimov B. Qodiriy germinetikasi. - T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2017.
5. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg'ongan millat ma'rifati. - T.: Ma'naviyat, 2011.
6. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi/Tanlangan asarlar. - T.: Sharq, 2018.
7. Suyunova Z. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida milliy ruhiyat talqini/ magistrlik dissertatsiyasisi. - T.: Toshkent. 2022.